

TASVIRIY SAN'ATDA IJODKOR OBRAZI – PORTRET JANRI

Sarvinoz Qosimova
Mahobatli rangtasvir kafedrası
2-bosqich magistranti

Tasviriy san'atda turli hil janrlar mavjud, ammo mening nazarimda ular orasida portret o'ziga xos o'rin kasb etadi. Har bir inson betakror, mo'jiza va mumtoz bir asardir. Hatto, barmoq izlari bir-biriga to'liq mos keladigan ikki insonni uchratish mumkin emas, dnksi har xil bo'lgani kabi inson fe'l-atvori ham turlichadir. Portret janri esa bularning barchasini o'z ichiga qamrab olishi kerak.

Uzoq o'tmishga nazar tashlasak, portretning ilk namunalarini qadimgi Misrda haykaltaroshlik asarlari sifatida ko'rishimiz mumkin. Portret janri uzoq yillar davomida rivojlanib, turli davrlarda o'ziga xos talab va vazifalari paydo bo'lib bordi. Hatto XIX asrda foto paydo bo'lganida ham, portret janri o'z qadr-qimmatini yo'qotmadi, aksincha hali- hanuzgacha rivojlanishda davom etmoqda.

Portret <<uslub>>, <<inson ichki olami>> va <<xarizma>> kabi tushunchalarni o'z ichiga qamrab oladi. Hozirgi kunda u faqatgina tasviriy san'at bilan chegaralanib qolmasdan, madaniyat sohasi, siyosat, ommaviy tizimlarda ham keng qo'llanilmoqda. Chunki, aynan portret o'ziga xoslik va shaklni, hamda o'zimizning <<Men>>imizni namoyish etadi.

San'atda portret nafaqat individning tashqi o'ziga xosligini, balki shaxs o'z ichki dunyosi bilan bo'lgan o'zgacha va noyob ko'rinishini o'zida mujassamlashtiradi. Portret janrining izlanuvida inson bilimlarining o'ziga xos sohasi sifatida faqatgina moddiy(jismoniy)likdan ko'z uzmagani holda individuallikni anglashni yoritadi.

Buyurtmachi va rassom kamdan kam hollarda do'stlar bo'lishadi. Turli tillarda gapira turib, do'stona munosabatni yaratish ham biroz mushkul masala. Buning ustiga agar buyurtmachi haqiqiy san'at shaydosi bo'lsa, u hech qachon buyurtma tayyor bo'lishi bilan bog'liq vaqtni yoki mukofot raqamini oddiygina

aniqlashtirish bilan chegaralanmaydi: axir uning ham bo'lg'usi san'at asarini yaratishda ishtirok etgisi keladi; uning ham sevimli kayfiyati bor, uning ancha paytdan beri unday yoki bunday yasatishni orzu qilgan devoir yoki shipi bor. Rassom esa faqatgina bir narsani so'raydi: uning ijodiy erkiga qarshi ish qilishmasa, begona, qo'pol qo'llar xayolining nozik siymosini, zaif iftixorini g'ijimlashmasa. Ularning yoli qayerda tutashadi!...

...Nihoyat portret tayyor. Ijod qiluvchi va kutuvchi, ikki adovatli iroda bir hissiyotli obrazga birlashadi, bu bilan ular yanada adovatliroq bo'lishadi va birbirlaridan uzoqlashishadi. Chunki buyurtmachi o'zi kutmagan narsani ko'radi, o'zini tanimaydi va hech qanday o'xshashlik topolmaydi; rassom yanada o'ziga ishonadiki, u hech qanday o'zshashlikni avvalam qidirmagan, ijodkorning oldida turgan vazifasi nusxa olish emas, taqlid qilish emas, shunchaki u rangtasvirda ijodiy asar yaratishni nazarda tutgan. Portretning achinarli taqdiri shundan iborat. Albatta, men faqat mavhum, aniq bir voqea, to'qnashuvli bir lahzani oldim. Odatda umuman boshqacha bo'lgan va bo'lishi ham mumkin; shunday bo'ladiki, buyurtmachining o'zi ham nega unga portret kerak bo'lib qolganini bilmaydi, shunda u o'ziga olib kelingan narsadan xursand bo'ladi; yoki shunday bo'ladiki, rassom o'zidan talab qilingandek qilib ishlaydi, shunda portretda o'xshashlikni ham, yuqori peshona, burgut burunni ham topish mumkin bo'ladi. Lekin biz bir mavhum usulni davom ettiramiz. Nigohlardagi farq qayerdan kelib chiqadi?...⁽¹⁾

Inson boshini tasvirlash, rassomdan o'ziga xos malaka, o'tkir nigoh va tajriba talab etadi. Tajribasiz talaba portret ishlashni oson deb o'ylaydi. Naturadan qalamtasvir ishlagach, uni o'ziga yaqin rang tanlab, bo'yab qo'yadi. Natija ko'ngildagidek chiqmaydi. Naturaning tashqi qiyofasida o'xshashlik sezilsada, to'laqonli rangtasvir portreti deb bo'lmaydi. Portret rangtasvirida talaba butun bilim va mahoratini ishga solib, tasvirlanayotgan shaxsning o'ziga xos psixologik holatini aniq topa bilishi kerak.

Avvalo maqsadni aniq qo'yish, rassom portret ishlashga o'tirar ekan, u eng avvalo nimani ko'rsatib bermoqchi. Tashqi qiyofami, ichki psixologik holatmi yoki tashqi ko'rinish bilan hamohang etib ichki hissiyotlarnimi?

Tasviriy san'atda ikona san'atidan haqiqiy portret janriga o'tuvchi "parsuna" degan davr bo'lgan. Bu davrda ishlangan portretlarda na mazmun, na his-hayajon mavjud. Tasvirlangan insonlarning yuz qismlari yassi etib, yuz ifodasi, ko'z nigohida hech qanday ma'no-mohiyat ko'rinmaydi.

Keyinchalik haqiqiy rus rangtasvir san'atidagi portretlarda ko'z nigohida qandaydir ma'noni ko'rish mumkin edi. To'g'ri, avvaliga, faqatgina shox saroyi a'yonlari yoki mashxurlar o'z portretlarini buyurtma qila olishgan.

Biz jahon tasviriy san'ati tarixidan ko'plab portret janri ustalarini bilamiz. Uyg'onish davrining buyuk rassomlari – Leonardo da Vinchi, Rafael, Titsian, Veroneze, Tintoretto kabi buyuk rassomlar ijodi hanuz rangtasvir ixlosmandlarini o'zining nozik portretlarida shaxsning murakkab qalb tug'yonlari ifodasidagi mohirliklariga qoyil qolib, ofarin deydilar. O'z davrining taniqli insonlarini flomand rassomlari – Rubens, Van Deyk, golland rassomlari – Hals, Rembrandtlar o'zlarining betakror asarlarida tasvirlay oldilar.

XVII asr ispan rassomi Riberaning portretlarida chuqur psixologik ifoda va badiiylilik ajralib tursa, XIX-XX asr fransuz rassomlari Renuar va Sezanlarning portretida yangi g'oya va mazmun o'ziga xos koloritda ifodalangan. Bundan tashqari bir qancha taniqli rus rassomlari I.Repin, V.Surikov V.Serov, M.Vrubel kabi rassomlar o'z zamondoshlarining bebaho portret galereyasini yaratib qoldirgan. Har bir portretida nafaqat tashqi o'xshashlik, balki insonning ichki psixologik dunyosini – oqil, tuyg'uga boy, olijanob xususiyatlarini yuqori badiiylilikda, o'ziga xos uslubda tasvirlay olganlar. Bizning taniqli o'zbek musavvirlari ham portret janrida barakali yutuqlarga erishdi.

Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhib kabi miniatyurachi rassomlar sharq tasviriy san'atida chuqur iz qoldirgan san'at darg'alaridan M.Nabiyev,

A.Abdullayev, R.Ahmedov, M.Saidov, M.Oganesov, N.Qo'ziboyev, Ch.Ahmarov kabi yetuk rassomlarning portret janridagi izlanishlari nihoyatda bebahodir.

Portretda tugallik – tasvirning yaxlitligi va ifodaliligidir. Faqatgina nazariy bilim bilan savodli tasvir ishlab bo'lmaydi. Albatta, portret janrida ijodkor ichki psixologik holatni to'g'ri ochishga erishishi uchun yuksak iste'dod, mahorat va katta tajriba kerak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Б.Р.Виппер. “Введение в историческое изучение искусства”.